



UO‘T:633.11

TAKRORIY KO‘CHAT USULIDA EKILGAN SHOLI NAVLARINING O‘SUV DAVRI.

¹*Urazmetov K K.,* ²*Yakubova N B.,* ³*Rajabova SH Z.*

¹*UrDU dotsenti,*

²*UrDU mustaqil tadqiqotchisi,*

³*UrDU talabasi.*

komilov@mail.ru.

Annatotsiya: Sholi o‘simligini hosildorligini oshirishda, “Iskandar” va “Guliston” navlari tanlab, takroriy sholi navlari ko‘chat usulida ekish, dala tajribalarni joylashtirish va kuzatish jarayonlarini olib borish.

Kalit so‘zlar: Sholi navi, hosildorlik, ko‘chat, dala tajribalari, fenologik kuzatuvlar.

Аннотация: Для повышения продуктивности растений риса провести селекцию сортов «Искандар» и «Гулистон», высадку повторных сортов риса рассадным способом, проведение полевых опытов, проведение технологических наблюдений.

Ключевые слова: Сорт риса, урожайность, всходы, полевые опыты, фенологические наблюдения.

Annotation: To increase the productivity of rice plants, select the varieties "Iskandar" and "Guliston", plant the main and repeat rice varieties in seedlings, conduct field experiments and conduct observation processes.

Key words: Rice variety, yield, seedlings, field experiments, phenological observations.

Hozirgi kunda jahon aholisining oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirish uchun boshoqli don ekinlari, jumladan, sholi hosildorligini yanada oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Dunyo bo‘yicha sholi 2019 yilda 165 mln gektar maydonda yetishtirilib, deyarlik 95 foizi ko‘chat usulida ekilgan. Ekin maydoni bo‘yicha birinchi o‘rinni Hindiston (43,4 ming/ga), ikkinchi o‘rinni Xitoy (30,8 ming/ga), uchinchi o‘rinni Indoneziya (13,8 ming/ga), to‘rtinchi o‘rinni Bangladesh



**«EKOLOGIYA VA ATROF MUHIT MUHOFAZASI
MUAMMOLARI VA ULARNING INNOVATSION YECHIMLARI»
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**



(11,8 ming/ ga), beshinchi o‘rinni Tailand (10,8 ming/ga), oltinchi o‘rinni esa Vetnam (7,8 ming/ga) egallaydi.

Prezidentimizning “Sholi yetishtirishni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida 2021 yilda jami sholi maydonlarining kamida 20 foizida sholini ko‘chatlab ekish, 50 foizida lazer uskunalari yordamida yer tekislash tizimini joriy etish, 30 foizida sholini zamonaviy urug‘ seyalkalari orqali ekish, 2022 yilda esa bu ko‘rsatkichlarni yanada oshirish ko‘zda tutilgan.

Bugungi kunda mamlakatimizda 100-110 ming gektar maydonda sholi ekilib, o‘rtacha hosildorlik gektariga 35-38 senterni, yalpi hosil 395 ming tonnani tashkil etmoqda. Ushbu miqdor mamlakatimizning kun sayin ortib borayotgan aholisining asosiy oziq-ovqat mahsulotlaridan biri bo‘lgan guruchga bo‘lgan talabini minimal darajada qondira olmoqda, xolos. Rasmiy ma‘lumotlarga ko‘ra, aholi talabini to‘liq ta‘minlash uchun har yili 55 ming tonna atrofida guruch mahsuloti import qilinmoqda.

O‘zbekistonning tuproq va iqlim sharoitida ko‘chat usulida asosiy ekin sifatida ekish uchun “UzROS 7-13”, “Mustaqillik”, “Marvarid”, takroriy ekin sifatida “O‘zbek-5”, “Nukus-2” va iqtidorli “3205-86” navlarini ekish tavsiya qilingan. Sholini ko‘chat qilib ekish muddatlarining sholi navlariga bog‘liqligini o‘rganish davomida kechpishar navlar erta muddatlarda, ertapishar navlar kech muddatlarda ekilganda yuqori hosil berishi, kechpishar navlar esa kech muddatlarda ekilganda hosildorlikning pasayish qonuniyati aniqlangan. Sholini ko‘chat usulida yetishtirish natijasida an‘anaviy usulga nisbatan o‘rta hisobda 5-6 ming kubometr suvni tejash mumkinligi, urug‘ sarfi 3-4 marta kam bo‘lishi haqida aytilgan. Olimlar yana shuni alohida ta‘kidlaydiki, ko‘chat usulida sholini takroriy ekin sifatida ekish usulida ishlab chiqarilgan mahsulotning sifati oddiy usulda yetishtirilganga nisbatan yuqori bo‘ladi.

Sholining o‘svuv davri navning tez, o‘rta yoki kechpisharligini belgilaydigan asosiy ko‘rsatkichlardan biri hisoblanib, bu ayniqsa mineral o‘g‘itlar miqdoriga katta ta‘sir ko‘rsatadi [1. 68-68b, 2. 123-126 b].

Tadqiqot natijalarida sholining o‘rtapishar Iskandar hamda ertapishar Guliston navlarini asosiy va takroriy ekin sifatida ko‘chatidan yetishtirilganda o‘simlikning o‘svuv davriga ekish sxemalarining ta‘siri o‘rganildi. O‘rtapishar Iskandar navini asosiy ekin sifatida iyun oyining 1-dekasida ekilganda 3 xil ekish sxemasida (30x10x1, 30x10x2, 30x10x3) sholi ko‘chatlarini 30 kunlik maysalarini ochiq dalaga olib chiqib



**«EKOLOGIYA VA ATROF MUHIT MUHOFAZASI
MUAMMOLARI VA ULARNING INNOVATSION YECHIMLARI»
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**



ekildi. Ekish sxemasi (30x10x1) o‘simlikning tuplash fazasiga 26 iyul sanasida, naychalash fazasiga 8 avgust sanasida, ruvaklash fazasiga 20 avgust sanasida, gullash fazasiga 25 avgust sanasida va pishish davriga 28 sentabr sanasida kirganligi aniqlandi.

Ekish sxemalarida (30x10x2, 30x10x3) mazkur ko‘rsatkichlar tuplash fazasiga 5-9 iyul, naychalash fazasiga 19-22 iyul, ruvaklash fazasiga 7-9 avgust, gullash fazasiga 11-12 avgust va pishish fazasiga 7-9 sentabr sanasida o‘tganligi kuzatildi.(1-jadval)

1-jadval

Takroriy ekin sifatida ko‘chat usulida yetishtirishda sholining Guliston navining o‘suv davri.

Var №	Ekish sxemasi	Ko‘chatlari soni	ko‘chatlari yoshi, kun	Tuplash	Naychalash	Ro‘vaklashgacha	Gullash	Pishish
1	3	4	5	6	7	8	9	10
Guliston navi (takroriy ekin sifatida)								
1	30x10x1	333	30	13.VII	26.VII	11.VIII	14.VIII	13.IX
2	30x10x2	666	30	9.VII	22.VII	9.VIII	12.VIII	9.IX
3	30x10x3	999	30	5.VII	19.VII	7.VIII	11.VIII	7.IX

M.Sattarov va boshqalar takroriy ekin sifatida ko‘chat usulida ekish uchun sholining o‘rtapishar “Ilg‘or”, “Istiqbol”, “Iskandar” va ertapishar “Nukus 2”, “Gulzor”, “Jayxun”, “Guljaxon”, “Sitara”, “Navbaxor” navlari tavsiya etiladi. Ko‘chatlarni ko‘chirib olinishidan 4,5 kun oldin gektariga 50 kg sof holda azot bilan oziqlantirilsa, ular baquvvat bo‘lib yangi yerga tezroq o‘rnashib ketishi aniqlangan. Takroriy ekin sifatida ko‘chat ekish qo‘lda ekilganda o‘rtapishar navlar uchun 15x15, ertapishar navlar uchun 15x10sm ni tashkil qilib, xar bir uyaga 2-4 donadan ko‘chat, mashina bilan ekilganda mos ravishda 30x12, 30x10 sm qilib ekiladi. Bunda ko‘chat yoshiga aloxida etibor berish kerak. Chunki ko‘chat yoshining oshib borishi bilan o‘simlikning o‘suv davri oshib boradi. Natijada sholi pishmay qoladi. O‘simlikni tuplash ko‘rsatkichlari pasayib ketadi.ko‘chat yoshi, ya’ni ko‘chirib asosiy dalaga o‘tkaziladigan sholi maysalarining ko‘chatzorda turish davri ertapishar navlarida 25-30, o‘rtapishar navlarida 30 kungacha bo‘lishi maqsadga muvofiq tajribada aniqlangan [6 B.14].

Xulosa: O‘rganilgan sholi navlarining o‘suv davriga ekish sxemalari sezilarli darajada ta’siri borligi aniqlandi. Takroriy ekin sifatida ertapishar Guliston navini 24 iyun kuni ochiq dalaga ko‘chatlari ekilganda sholi urug‘larini ko‘chatxonaga ekilganda to pishish



«EKOLOGIYA VA ATROF MUHIT MUHOFAZASI
MUAMMOLARI VA ULARNING INNOVATSION YECHIMLARI»
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya



davrigacha 111-105 kunninga, ochiq dalaga ko‘chatlari ekilganda to‘pishish davrigacha 81-75 kunninga tashkil qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. D.Saitxanova “Turli ekish usullari va bargdan oziqlantirishning sholini o‘shishi, rivojlanishi hamda don hosildorligiga ta’siri” qishloq xo‘jaligi fanlari falsafa doktori uchun yozilgan dissertatsiyasi 65-68 b. Toshkent-2021 y
2. X.Atabaeva “O‘simlikshunoslik” darslik 123-126 b. Toshkent-2022
3. Q.O‘razmetov “Sholichilik” darslik 68-74 b Toshkent-2020
4. Dospexov B.A «Metodika polevogo opyta» Moskva «Kolos» 1985 g, s 350-423
5. Sattarov M.A. va boshqalar “O‘zbekistonda sholidan yuqori hosil olish bo‘yicha tavsiyanoma” // Toshkent. 2019. 24 b.
6. Sattarov M, Otamirzaev N., Qalandarov B. “Takroriy sholi yetishtirish” O‘zbekiston qishloq xo‘jalik jurnali. Toshkent 2013 y №7 14 bet.

